

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI KUNI» DOIRASIDA TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Hakimov Abduqahhor Shuhrat o'g'li
IIV Akademiyasi 207-guruh kursanti

Аннотация: В данной статье организация деятельности профилактических инспекторов, их роль в организации дня профилактики правонарушений, основные задачи профилактических инспекторов в день профилактики правонарушений и его характеристика, механизм реализуемых мероприятий, организационные основы. описаны основные задачи инспекторов-профилактиков в «День профилактики правонарушений» и направления по совершенствованию организации, направления по совершенствованию организации мероприятий в рамках «Дня профилактики правонарушений» и некоторые проблемы и недостатки, возникающие в этой деятельности.

Annotation: In this article, the organization of activities of preventive inspectors, their role in the organization of the day of crime prevention, the main tasks of preventive inspectors on the day of prevention of crimes and its characteristics, the mechanism of implemented measures, the organizational basis of the main tasks of preventive inspectors on the "Day of prevention of crimes" and directions for improving the organization, directions for improving the organization of events within the "Day of Crime Prevention" and several problems and shortcomings arising in this activity are described.

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining faoliyatini tashkil etish, xuquqbuzarliklar profilaktikasi kunini tashkil etishdagi o'rni, profilaktika inspektorlarining xuquqbuzarliklar profilaktikasi kunidagi asosiy vazifalari va uning o'ziga xos xususiyatlari, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mehanizmi, profilaktika inspektorlarining "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi kuni"dagi asosiy vazifalarning tashkiliy asoslari va tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari, "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" doirasida tadbirlarni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari va ushbu faoliyatda yuzaga kelayotgan bir qancha muammo va kamchiliklar bayon etilgan.

Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibliigi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni talab etadi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 mart kunidagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-sonli qarori bilan respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida: birinchidan, davlat organlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi ishlari qoniqsiz deb e'tirof etdi; ikkinchidan, huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlarining ustuvor vazifasi etib belgilandi.

Shuningdek, ushbu Qarorda huquqbuzarliklarga murosasizlik madaniyatini shakllantirish, huquqiy nigilizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini ommalashtirish, aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganish, huquqbuzarlik sodir etishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish uyma-uy yurishlarni tashkil etish maqsadida haftaning har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilandi va amaliyotda har payshanba kuni jamiyatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasiga mas'ul bo'lgan davlat organlari va muassasalarining birgalikdagi vazifasi ekanligi va o'sha kuni hammasining asosiy vazifalaridan biri aynan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish ekanligi belgilab qo'yildi. Ushbu sohada quyidagilar davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib hisoblandi: - fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini, shu jumladan aholi bilan to'g'ridan- to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyatida faol ishtirok etish, fuqarolar murojaatlari va muammolariga bepisand munosabatda bo'lish va byurokratik holatlarga yo'l qo'ymaslik orqali ta'minlash; - huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish choralarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida oldini olish hamda ularga chek qo'yish, shuningdek ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish; - idoralararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan videokuzatuv, elektron hisobga olish va o'zaro axborot almashish, idoralararo ma'lumotlar bazalari tizimlarini profilaktik ishlarga keng joriy etish; - jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ijtimoiy va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan to'g'ridan- to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish; - amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlarining mazmun- mohiyati va ahamiyatini, qonuniylik ahvoli hamda jinoyatchilik darajasi

haqidagi ma'lumotlarni aholiga yetkazish masalalarida ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlik qilish, Internet butunjahon axborot tarmog'i imkoniyatlaridan keng foydalanish, sodir etilgan huquqbuzarliklar va ularni bartaraf etish jarayoni to'g'risida keng jamoatchilikni tezkor xabardor qilish;

Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini, shu jumladan huquqbuzarliklar dinamikasi, ularni sodir etish takroriyliqi, ijtimoiy fikr, profilaktik ishlar natijasidan fuqarolarning qoniqish hosil qilishi va aholi bilan hamkorlik darajasini inobatga oladigan baholashning aniq mezonlarini joriy etish- ijtimoiy muammolarni hal etish, birinchi navbatda aholi bandligini ta'minlash, ayollar va yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etishni faollashtirish, voyaga yetmaganlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish; - huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari bo'yicha kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, profilaktik ishlarni olib borishning zamonaviy uslubiyotini joriy etish; - huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va g'ayriijtimoiy xulq- atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan yoki sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish; - huquqbuzarliklar profilaktikasiga fuqarolar va jamoat tashkilotlarini, shu jumladan ularni moddiy va boshqacha tarzda rag'batlantirish orqali jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish.

Erishilgan natijalarga qaramasdan, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «... huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi». Chunki, «bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani hammamizni tashvishga solishi kerak»\

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etish huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari asosida amalga oshiriladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining har bir turi o'z maqsadi, vazifasi, xususiyatlari va afzalliklari asosida ishlab chiqilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimiga ega. Mazkur chora-tadbirlar huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 may kuni qabul qilingan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunini tahlil qilish natijalari uning 23-moddasida berilgan huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlaridan «ko'zlangan muayyan maqsadga erishish yo'lida puxta o'ylab, ishlab chiqilgan tadbirlar, xatti-harakatlar majmui» deb hisoblash mumkin.

Buni qonunning 22-moddasida ko'ra, «huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning huquqbuzarliklarning oldini olish, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish bo'yicha faoliyati»dir.

Vaholanki, huquqbuzarliklarning maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasi turlari ham huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabablari hamda sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga yo'naltiriladi⁵⁴.

Aynan shuning uchun ham Qonunning 23-moddasida huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining quyidagi oddiy va sodda tizimi shakllantirilgan: – huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat dast ularini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; – aholi o'rtasidagi huquqiy targ'ibot; – huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish hamda bu haqda taqdimnomalar kiritish.

Qonunning 3-moddasida «huquqbuzarliklar profilaktikasi»ga berilgan ta'rifda huquqbuzarliklar profilaktikasi huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlar tizimidan iboratligi ko'rsatilgan, ayni paytda huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasi chora-tadbirlari huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora- tadbirlar mazmunini ham to'liq qamrab oladi.

Ba'zi olimlar, umumiy profilaktika iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy, davlat-huquqiy, ijtimoiy-psixologik va madaniy-tarbiyaviy chora-lardan iborat bo'lishi lozim deb hisoblaydi«Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda tashkiliy chora-tadbirlari mazkur yo'nalishdagi faoliyatni rejalashtirish, tadbirlar uyushtirish, faoliyatni nazorat qilish, hisobotlarni yuritish, ulardan foydalanish, ishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish kabilarni qamrab olishi lozim. Shu bois quyidagilarni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda tashkiliy chora-tadbirlari sifatida kiritish taklif etiladi: 1) huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, hisobini yuritish, tahlil qilish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; 2) huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat, hududiy, sohaviy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; 3) «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish; 4) huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va uslubiy ta'minlash; 5) huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish uchun tegishli mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda huquqiy chora-tadbirlari huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonun hujjatlari ishlab chiqish, ularning ijrosini ta'minlash, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni barta- aholining, ayniqsa, hsib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi.

Ana shundagina hech qanday yot g'oya va mafkura ular ongiga ta'sir eta olmaydi, huquqbuzarliklarning oldi olinadi.

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda ma'naviy-axloqiy chora-tadbirlari insonning ma'nau va axloqan yetuk bo'lib shakllanishini, huquqbuzarliklar sodir etishdan o'zini tiyishini kafolatlaydi.

Garchi, «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda ma'naviy-axloqiy hamda mafkuraviy chora-tadbirlari shaxsning shakllanishiga birdek xizmat qilsa-da, ammo mazmuni va yo'nalishi bilan ular bir-biridan farqlanadi. «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda ma'naviy-axloqiy chora-tadbirlari tizimiga quyidagilarni kiritish tavsiya etiladi: 1) umuminsoniy, milliy, diniy, mahalliy, oilaviy, huquqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash; 2) umume'tirof etilgan axloq-odob normalarini ishlab chiqish va keng ommaga targ'ib qilish; 3) fuqarolarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksalishiga xizmat qiluvchi khirsatuv, eshittirish va maqollalar tayyorlab, ommaviy axborot vositalarida namoyish qilish; 4) milliy serial, kinofilm, multfilm, spektakl kabilarni insonda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi epizodlar bilan boyitish;

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda chora-tadbirlarining ilmiy-amaliy tahlili ularning barchasi ham o'tkazish asoslari va tartibiga ega emasligini ko'rsatmoqda.

Misol uchun, huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir davlat darajasidagi, hududiy, sohaviy yoki sohaviy-hududiy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirishning asoslari va tartibini ilmiy yoki huquqiy manbalarda kuzatish qiyin. Aynan shuning uchun ham «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni»ni tashkil etishda mazkur chora-tadbirini amalga oshirishda muayyan muammo va qiyinchiliklar mavjud.

Mazkur muammoni huquqiy targ'ibotni amalga oshirish, huquqbuzarliklarning sabablari hamda sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek bu haqda taqdimnomalar kiritish va ularning ijrosini ta'minlashga doir faoliyatda ham kuzatish mumkin.

Umuman olganda, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunning 4-moddasida «huquqbuzarliklarning sabablarini va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish» ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishi etib belgilangan.

Biroq bu boradagi ishlar to'liq huquqiy tartibga solinmagan.

Chunonchi, garchi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonun qabul qilinib, ushbu sohada bosqichma-bosqich keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib kelayotgan bo'lsa-da, hanuzgacha huquqbuzarliklarning sabablari va sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, hisobini yuritish, tahlil qilish va bartaraf etishning huquqiy mexanizmi yaratilmasdan, bu boradagi ilmiy-amaliy muammolar dolzarbligicha qolib kelmoqda.

Yuzaga kelayotgan bunday muammo va kamchiliklarni oldini olish xamda bartaraf yetish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich

Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi «2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmonining 1- ilovasidagi 16 va 17-maqсадlarida aynan mana shu kamchiliklarni bartaraf yetish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar belgilab o'tilgan. 16-maqсад: Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.

Jamoat tartibini saqlash bo'yicha patrullik xizmati faoliyatini tubdan takomillashtirish, shu jumladan zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etgan holda fuqaroni ichki ishlar bo'limiga tekshirish uchun olib borish amaliyotidan voz kechish.

Yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda avariya va o'lim holatlarini qisqartirish, shu jumladan harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlash. 17-maqсад: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, bugungi kunda profilaktika inspektorlarining faoliyatini tashkil etishda ham bir qancha kamchiliklar bo'lganligi uchun ham "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni"ni tashkil etishda va vazifalarni amalga oshirishda ham bir qator muammoli holatlar ham yo'q emas albatta.

Ushbu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2017 yil 14 mart) PQ-2833-son qarorida ham tanqidiy baholanib, unga «huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bilyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayapti» degan mazmunda izoh berilgan.

Profilaktika inspektorining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" dagi asosiy vazifalarini amalga oshirish jarayoni va tadqiqotlarni olib borish asosida olingan xulosalar jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini o'rganish hamda jinoyatchilik orqasida yuzaga keluvchi salbiy oqibatlarni baholashda muhim o'rin tutishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Zotan, huquqbuzarliklar profilaktikasi istiqbollari hozirgi kunda yetarlicha baholanmaganligi achinarli holdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir: O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza // Xalqso'zi. – 2018. – 8 dek.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr)/ Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi// <http://constitution.uz/uz/pages/humanrights>.

3. Криминальное насилие: общие проблемы и опыт борьбы в Республике Саха (Якутия) [Текст] / отв. ред. А. И. Долгова. – М., 2004.

4. Gender zo'raonlik bo'yicha ichki ishlar organlari tomonidan huquqni muhofaza qilish xizmatlarini taqdim etishning standart operatsion ish tartiblari [Matn]: йўриқнома / адаптация бўйича мутахассис В. О. Самадович. — Тошкент: Baktria press, 2021. — 48 б.

5.

https://www.hotpeachpages.net/lang/RussianTraining/myths_and_realities_of_d_v.pdf,
<http://kraism.by/obshhestvo/45469-pravda-i-mify-o-domashnem-nasilii.html>

6. Жалилов, Н. 2022. Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Жамият ва инновациялар . 2, 12/S (Feb. 2022), 348–352. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss12/S-pp348-352>.

7. Жалилов, Н. 2022. Ҳуқуқбузарликларнинг яқка тартибдаги профилактикаси институтининг назарий асослари. Жамият ва инновациялар . 3, 4/S (May 2022), 397– 403. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp397-403>.

8. Jalilov, N. (2022). PROFILAKTIK HISOB TUSHUNCHASI VA UNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI. Academic research in modern science, 1(9), 313-318.

9. Джалилов, Н. (2021). Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Общество и инновации, 2(12/S), 348-352. 35

10. Bozorova, O., & Jalilov, N. (2022). Jamiyatda xotin-qizlarning zo'raonlik jinoyati jabrlanuvchisi bo'lib qolishining oldini olish masalalari. Davlat Boshqaruv Sohasida Korruptsiyaviy Xavf-Xatarlarni Bartaraf Etish Mehanizmlarini Takomillashtirish Masalalari, 1(01), 117–121. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/issuesimproving/article/view/1263>